



Inson huquqlari kutubxonasi

# SUD TA'QIBINI

**AMALGA OSHIRUVCHI  
SHAXSLARNING ROLIGA TAALLUQLI  
RAHBARIY PRINSIPLAR**

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi  
Milliy markazi

Inson huquqlari kutubxonasi

**SUD TA'QIBINI  
AMALGA OSHIRUVCHI SHAXSLARNING  
ROLIGA TAALLUQLI RAHBARIY PRINSIPLAR**

Toshkent – 2023

**UO'K 342.7+347.963**  
**KBK 67.410**

**S 95      Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga taalluqli Rahbariy  
prinsiplar** – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi,  
2023. – 24-b. ("Inson huquqlari kutubxonasi")

ISBN 978-9910-9787-2-2

**Mas'ul muharrir:** akademik A.X. Saidov

Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga taalluqli Rahbariy prinsiplar BMTning a'zo-davlatlar jinoiy ta'qib organlarining faoliyat tamoyillarini batafsilroq belgilaydigan eng muhim hujjat hisoblanadi.

Qo'llanmada sudyalalar, prokurorlar, amaliyotchi yuristlar, davlatning boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari va inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar uchun inson huquqlarini himoya qilish strategiyalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan bo'lib, bu ularga o'z faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirishlarida yordam beradi.

Nashr amaliyotchi yuristlar, o'qituvchilar, aspirantlar, yuridik fakultet talabalari uchun mo'ljallangan.

**UO'K 342.7+347.963**  
**KBK 67.410**

ISBN 978-9910-9787-2-2

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi xalqaro standartlar .....                                                                                                                                                                                                                                  | 4  |
| Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning<br>oldini olish va jinoiy odil sudlov bo'yicha kongressi<br>to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar .....                                                                                                                                            | 10 |
| Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga<br>taalluqli rahbariy prinsiplar<br><i>(Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning<br/>oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish<br/>bo'yicha sakkizinchi kongressi,<br/>Gavana, 1990-yil 27-avgust – 7-sentyabr)</i> ..... | 12 |

---

## **ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISH SOHASIDAGI XALQARO STANDARTLAR**

Odil sudlov va huquqni muhofaza qilish organlarining inson huquqlarini himoya qilish borasidagi ahamiyati nihoyatda ulkandir. XX asrning o'rtalariga qadar ham odil sudlovni amalga oshirish masalalari faqatgina davlatlarning ichki huquq normalari bilan tartibga solib kelinardi. Har bir mamlakatning milliy qonunchiligi xalqaro huquq normalaridan qat'i nazar, sudyalar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy holatini, prosessual qonun hujjatlarini milliy doirada mustahkamlab kelgan. Binobarin, bu ish faqatgina milliy qonunchilik vakolatiga tegishli, deb hisoblangan.

Bugungi kunga kelib ahvol tubdan o'zgardi. Sud va huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati xalqaro huquq normalari bilan ham tartibga solinadigan mustaqil sohaga aylanadi. Hozirgi kunda odil sudlovni amalga oshirish davlatlarning milliy qonunlari bilan ham, xalqaro va mintaqaviy huquq normalari bilan ham tartibga solinmoqda. Shu asnoda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda xalqaro huquqning tutgan o'рни borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XXI asrda xalqaro munosabatlarning diqqat markazida inson, uning huquqlari va erkinliklari turibdi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga daxldor xalqaro standartlar o'рни oshib bormoqda. Odil sud va huquqni muhofaza qilish organlari inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning muhim mexanizmi sifatida xalqaro standartlar asosida samarali faoliyat ko'rsatadi. Odil sudlov, tergov va surishtiruvga bo'lgan huquq xalqaro umume'tirof etilgan huquq va erkinliklar sirasiga kiradi. Agar odil sudlov va huquqni muhofaza qilish or-

ganlari samarali faoliyat ko'rsata olmasa, insonning biror-bir huquqini himoya qilish mumkin bo'lmay qoladi.

Odil sudlovni amalga oshirishga daxldor asosiy prinsiplar va standartlar inson huquqlariga hamda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga oid bir qancha xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan.

Bundan 75 yil oldin, ya'ni 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasida qonun oldida tenglik, aybsizlik prezumpsiyasi prinsiplari, odil sudlov qonunga muvofiq ta'sis etilgan mustaqil va xolis sud tomonidan adolatli hamda oshkora ravishda o'tkazilishi huquqi mustahkamlangan. Xususan, Deklarasiyaning 8-moddasida "har bir inson unga Konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega", deyilgan.

1966-yilda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar qabul qilingan. Insonlarning barcha shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish ushbu ikki Paktda kafolatlangan.

Shuningdek, odil sudlovni amalga oshirish hamda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati prinsiplari "Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilish qurbonlari uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari deklarasiyasi", "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari", "Mansabdor shaxslarning huquqiy tartibotni saqlash borasidagi axloh kodeksi", "Odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi inson huquqlari: hibsga olish yoki qamoq jazosiga tortiladigan shaxslarning himoyasi", "BMT-ning Voyaga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari)" va boshqa universal shartnomalar bilan mustahkamlangan.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar sudyalari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi xalqaro standartlarni belgilab beradi.

---

Masalan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida har kim o'ziga qo'yilgan har qanday jinoiy ayblovni ko'rib chiqishda to'liq tenglik asosida kamida unga ta'minlanishi kerak bo'lgan quyidagi kafolatlar sanab o'tilgan:

a) o'ziga qo'yilgan jinoiy ayblov xususiyati va asoslari haqida u tushunadigan tilda zudlik bilan va batafsil xabardor etilishi;

b) o'z himoyasini tayyorlash va o'zi tanlagan himoyachi bilan muloqotda bo'lish uchun yetarlicha vaqt va imkoniyatga ega bo'lish;

c) asossiz kechiktirmasdan ishining sudda ko'rilishi;

d) o'zining ishtirokida sud qilinishi va o'zini shaxsan yoki o'zi tanlagan himoyachi orqali himoya qilinishi; agar unda himoyachi bo'lmasa, bu huquq haqida xabardor qilinishi va odil sud manfaatlarini talab qilgan har qanday holatda unga tayinlangan himoyachiga ega bo'lishi, bu himoyachiga to'lash uchun yetarli mablag'i bo'lmagan har qanday holatda unga himoyachining tekinga berilishi;

e) unga qarshi ko'rsatma berayotgan guvohlarni so'roq qilish yoki shu guvohlar so'roq qilinishi huquqiga ega bo'lishi va unga qarshi ko'rsatma berayotgan guvohlar uchun mavjud bo'lgan shartlarda o'zining guvohlarini chaqirish va so'roq qilish huquqiga ega bo'lishi;

f) sudda qo'llanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gaplasha olmasa bepul tarjimon ko'magidan foydalanish;

g) o'ziga o'zi qarshi ko'rsatma berishga yoki o'zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmasligi.

Hozirgi kunda jahonning ko'pgina demokratik davlatlarida davlatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarini milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi sifatida tan olish va uning qoidalari ustuvorligini e'tirof etish davlatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlari bajarilishining eng muhim kafolatlaridan biri sifatida konstitutsiyaviy mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi, deb belgilab qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarda o'z ifodasini topgan xalqaro standartlar huquqiy tartibga solishning asoslaridan biri hisoblanadi, bu standartlar qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotining muhim mezonlaridir. Konstitutsiyaning 19-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi.

Odil sudlov, tergov va surishtiruvga bo'lgan huquqni ta'minlash davlatning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlardan biri hisoblanadi. Davlat milliy xususiyat, mentalitet, manfaatni ro'kach qilib yoki bu huquqlarni ta'minlashning milliy qonunchilik asoslari, tegishli huquqiy normalar mavjud emasligini asos qilib odil sudlov, tergov va surishtiruvga bo'lgan huquqqa rioya qilmasligi yoki uni ta'minlamasligi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi uchinchi qismi bilan "har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi".

Insonning sudga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish huquqi, odil sudlov, tergov va surishtiruvdan foydalanish huquqi, shuningdek sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar himoyasiga bo'lgan huquqi cheklanishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-mod-



dasi uchinchi qismiga muvofiq “insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin. Lekin insonning odil sudlov, tergov va surishtiruvga bo‘lgan huquqi hech qaysi bir vaziyatda konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qila olmaydi. Odil sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar himoyasi o‘zining biron bir ko‘rinishida ko‘rsatilgan shaxs va jamoat manfaatlariga tahdid sola olmaydi, aksincha, ularni himoya qilishga xizmat qiladi. Shunga muvofiq, odil sud, adolatli tergov, surishtiruvda inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlaridan chetga chiqishni hech bir sabab bilan oqlab bo‘lmaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 55-moddasi to‘rtinchi qismida “har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli” ekanligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilangan. Bu bilan, agar insonda odil sud, tergov va surishtiruvga bo‘lgan huquqlarining milliy sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan samarali ta’minlangani borasida norozilik bo‘lsa, bunday vaziyatda odil sudlov, tergov va surishtiruv sohasidagi xalqaro standartlarning bevosita xalqaro organlar tomonidan qo‘llanilishiga kafolat berilgan.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida odil sudlov, tergov va surishtiruvning inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlariga muvofiq bo‘lishining majburiyligi mustahkamlangan. Boshqa tomondan, insonning odil sudlov va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan foydalanish huquqi sohasidagi xalqaro standartlarning milliy qonunchilik

darajasida mustahkamlanishi odil sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini ta'minlashning muhim huquqiy mexanizmlarini yaratadi.

Umid qilamizki, "Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga taalluqli Rahbariy prinsiplari"ning o'zbek tili-dagi nashri sudyalari, prokurorlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasidagi faoliyatida foydali qo'llanma bo'ladi.

## **BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH VA JINOIY ODIL SUDLOV BO'YICHA KONGRESSI TO'G'RISIDAGI UMUMIY MA'LUMOTLAR**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov bo'yicha kongressi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT GJB) tomonidan tashkil etilgan. BMTning a'zo-davlatlari va kuzatuvchilar, xalqaro tashkilotlar, nohukumat tashkilotlar va maxsus ekspertlar Kongress ishtirokchilari hisoblanadi.

Har besh yilda bir marta jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi bo'yicha xalqaro konferensiyalar o'tkazish amaliyoti 1872-yilda, keyinchalik u Xalqaro jinoyat va penitentsiar komissiyasiga (XJPK) o'zgartirilgan Xalqaro qamoqxonalar komissiyasi shafeligida konferensiyalar o'tkazilganda yuzaga kelgan. Bosh Assambleya 1950-yilda o'zining 415(V)-rezolyutsiyasida ushbu Komissiya vazifalarini Birlashgan Millatlar Tashkilotiga o'tkazishga ruxsat berdi va reja qabul qildi, unga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkiloti har besh yilda Xalqaro Kongressni chaqirish majburiyatini oladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining birinchi Kongressi 1955-yil Jenevada bo'lib o'tgan.

Ushbu kongresslar Birlashgan Millatlar Tashkilotiga jinoiy odil sudlovning normalari va standartlarini qo'llashni umumlashtiradigan kerakli xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishda muhim rol o'ynash imkonini berdi. Ushbu hujjatlar qatoriga quyidagilar kiradi: Mahbuslar bilan muomalada bo'lishning minimal standart qoi-

dalari; Huquq-tartibotni saqlash yuzasidan mansabdor shaxslarning axloq kodeksi; Barcha shaxslarni qiynoq hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlaridan himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya; O'lim jazosiga hukm qilinganlar huquqlarini himoya qilishni kafolatlovchi choralar; Rivojlanish va yangi xalqaro-iqtisodiy tartib kontekstida jinoyatchilikni oldini olish va jinoyiy odil sudlov sohasidagi Rahbariy prinsiplar; Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga doir minimal standart qoidalari; Sud organlarining mustaqilligiga doir asosiy prinsiplar va boshqalar.

Oxirgi o'n to'rtinchi Kongress 2021-yil Kioto shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan, unda "Jinoyatchilikni oldini olish, jinoyiy odil sudlov va huquq ustuvorligini ta'minlash choralarini kuchaytirish: 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibini amalga oshirishga ko'maklashish" to'g'risidagi Kiota deklaratsiyasi qabul qilingan.

## **SUD TA'QIBINI AMALGA OSHIRUVCHI SHAXSLARNING ROLIGA TAALLUQLI RAHBARIY PRINSIPLAR**

*Birlashgan Millatlar Tashkilotining  
Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan  
muomala qilish bo'yicha sakkizinchi kongressi,  
Gavana, 1990-yil 27-avgust – 7-sentyabr*

### **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'y- icha sakkizinchi kongressi,**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha yettinchi kongressi tomonidan konsensus asosida qabul qilingan hamda Bosh Assambleyaning 1985-yil 29-noyabrdagi 40/32-rezolyut-siyasida tasdiqlangan Milan harakatlar dasturiga *tayanib*,

shuningdek, yettinchi Kongress Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha qo'mitasini sud ta'qibi-ni amalga oshiruvchi shaxslarga taalluqli Rahbariy prinsiplarni ishlab chiqish zarurligini ko'rib chiqishga da'vat etadigan 7-re-zolyutsiyaga *tayanib*,

qayd etilgan rezolyutsiyaga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha sakkizinchi kongressiga Qo'mi-ta va mintaqaviy tayyorgarlik yig'ilishlari tomonidan qilingan ishlarni *mamnuniyat bilan ta'kidlab*,

1. ushbu rezolyutsiyaning ilovasida keltirilgan sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning roliga taalluqli Rahbariy prin-siplarni qabul qiladi;

2. har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari va an'analarini hisobga olgan holda, qa-

ror qabul qilish va milliy, mintaqaviy va mintaqalararo amalga oshirish uchun Rahbariy prinsiplarni tavsiya qiladi;

3. a'zo-davlatlarga o'zlarining milliy qonun hujjatlari va amaliyoti doirasida Rahbariy prinsiplarni e'tiborga olishni va hurmat qilishni taklif qiladi;

4. a'zo-davlatlarga, shuningdek Rahbariy prinsiplarni sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar va boshqa shaxslar, xususan, sudyalalar, advokatlar, ijro etuvchi va qonunchilik organlari xodimlari hamda aholi e'tiboriga yetkazishni taklif qiladi;

5. Rahbariy prinsiplarni amalga oshirishda Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi mintaqaviy komissiya, mintaqaviy va mintaqalararo muassasalarni, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasalari va tizimning boshqa organlari, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash huzuridagi Maslahatlashuv maqomiga ega bo'lgan boshqa manfaatdor hukumatlararo tashkilotlar va nohukumat tashkilotlarni faol ishtirok etishga qat'iy chaqiradi;

6. Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha qo'mitasini ushbu rezolyutsiyani amalga oshirish haqidagi masalani birinchi navbatda ko'rib chiqishga chaqiradi;

7. Bosh kotibdan Rahbariy prinsiplarni imkon qadar kengroq ommalashtirish, jumladan, ularni hukumatlararo va nohukumat tashkilotlariga hamda boshqa manfaatdor tomonlarga yuborish uchun tegishli choralarni ko'rishni so'raydi;

8. Bosh kotibdan, shuningdek 1993-yildan boshlab besh yilda bir marta Rahbariy prinsiplarni amalga oshirish haqidagi ma'ruzani tayyorlashni so'raydi;

9. keyinroq Bosh kotibdan a'zo-davlatlarga ularning iltimoslariga ko'ra Rahbariy prinsiplarni amalga oshirish va Qo'mitaga ushbu masala bo'yicha doimiy ravishda ma'ruza taqdim etishda yordam berishni so'raydi;

10. mazkur rezolyutsiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha manfaatdor organlari e'tiboriga yetkazilishini so'raydi.

## **SUD TA'QIBINI AMALGA OSHIRUVCHI SHAXSLARNING ROLIGA TAALLUQLI RAHBARIY PRINSIPLAR**

Jahon xalqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida, xususan, adolatga rioya etish mumkin bo'ladigan shart-sharoitlar yaratishga qaror qilganliklarini hamda irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklariga bo'lgan hurmatni rag'batlantirish hamda rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni asosiy maqsadlaridan biri sifatida e'lon qilganliklarini *e'tiborga olib*,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qonun olidda tenglik, aybsizlik prezumpsiyasi prinsiplari hamda ish mustaqil va xolis sud tomonidan ochiq va adolatning barcha talablariga rioya etgan holda ko'rib chiqilishi huquqi qayd etilganligini *e'tiborga olib*,

ko'p hollarda hali ham ushbu prinsiplar asosini tashkil etgan maqsadlar va real voqelik o'rtasida nomuvofiqlik mavjudligini *e'tiborga olib*,

har bir mamlakatda odil sudlovni tashkil etish va amalga oshirish ushbu prinsiplar asosida qurilishi kerakligi hamda ularni hayotga to'liq tatbiq etish maqsadida choralar ko'rilishi zarurligini *e'tiborga olib*,

sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning adolatli sud qilishda hal qiluvchi rol o'ynashini va ularning muhim vazifalarni bajarishlarini tartibga soluvchi normalar ular tomonidan yuqorida bayon etilgan prinsiplarning hurmat qilinishi hamda ularga rioya etilishiga ko'maklashishi, shu bilan adolatli va teng huquqli jinoiy odil sudlov va fuqarolarni jinoyatchilikdan samarali himoya qilishga yordam berishi kerakligini *e'tiborga olib*,

sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning o'z vazifalarini bajarishlari uchun zarur bo'lgan tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash muhim ekanligini, bunga

kadrlarni yollash va professional yuridik tayyorgarlik uslublarini takomillashtirish orqali hamda ular tomonidan jinoyatchilikka, ayniqsa, uning yangi shakllari va ko'lamlariga qarshi kurash bilan bog'liq o'z vazifalarining tegishli ravishda bajarilishi uchun barcha zarur choralarni ta'minlash orqali erishilishini *e'tiborga olib*,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha beshinchi kongressining tavsiyasiga ko'ra Bosh Assambleya o'zining 1979-yil 17-dekabrda 34/169-rezolyutsiyasida Huquq-tartibotni saqlash yuzasidan mansabdor shaxslarning axloq kodeksi qabul qilganligini *e'tiborga olib*,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha oltinchi kongressi 16-rezolyutsiyada Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha qo'mitasini sudyalarning mustaqilligiga hamda sudyalarning va sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarni tanlash, kasbiy tayyorgarligi va maqomiga oid Rahbariy prinsiplarni ishlab chiqishni o'zining birinchi navbatdagi masalalari jumlasiga kiritishga da'vat etganligini *e'tiborga olib*,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha yettinchi kongressi Bosh Assambleyaning 1985-yil 29-noyabrda 40/32 va 1985-yil 13-dekabrda 40/146-rezolyutsiyalari bilan ma'qullangan Sud organlarining mustaqilligiga taalluqli asosiy prinsiplarni qabul qilganligini *e'tiborga olib*,

jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilish qurbonlari uchun Odil sudlovning asosiy prinsiplari deklaratsiyasida jinoyat qurbonlariga odil sudlovning ochiq bo'lishi va adolati muomala, restitusiya, zarar o'rnini qoplash hamda yordam ko'rsatish sohasidagi vaziyatni yaxshilash maqsadida xalqaro va milliy darajalarda choralar ko'rish tavsiya etilganligini *e'tiborga olib*,



7-rezolyutsiyada yettinchi Kongress Qo‘mitani sud ta‘qibini amalga oshiruvchi shaxslarni tanlash, kasbiy tayyorgarligi va maqomiga, xususan, ularning taxmin qilingan majburiyatlari va xulq-atvori, jinoiy odil sudlov tizimining mukammal ishlashini ta‘minlashdagi hissasini oshirish yo‘llari va polisiya bilan hamkorligini kengaytirishga, ixtiyoriy vakolatlari doirasi va jinoiy sud ishlarini yuritishda ularning rolga taalluqli rahbariy prinsiplarni ishlab chiqish zaruratini ko‘rib chiqishga hamda ushbu masala bo‘yicha ma‘ruzalarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining kelgusi kongresslariga taqdim qilishga chaqirganligini *e’tiborga olib*,

quyida keltirilgan a‘zo-davlatlarga sud ta‘qibini amalga oshiruvchi shaxslarning samaradorligini, mustaqilligi va adolatlilikini ta‘minlash va oshirish vazifalarini hal etishda yordam ko‘rsatish uchun ishlab chiqilgan Rahbariy prinsiplarga jinoiy ish yuritishda rioya etilishi hamda hukumatlar tomonidan o‘zlarining milliy qonunchiligi va amaliyoti doirasida e’tiborga olinishi hamda prokurorlar, shuningdek sudyalar, advokatlar, ijro etuvchi va qonunchilik organlarining mansabdor shaxslari kabi boshqa shaxslarning va umuman, aholining e’tiboriga yetkazilishi kerak. Mazkur Rahbariy prinsiplar jamoat ayblovchilariga moslab ishlab chiqilgan, biroq ular tegishli hollarda teng darajada maxsus asosda tayinlangan ayblovchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

### **Malaka, tanlab olish va kasbiy tayyorgarlik**

1. Sud ta‘qibini amalga oshirish uchun tanlab olingan shaxslar yuksak axloqiy sifatlar va qobiliyatga, shuningdek tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo‘lishlari kerak.

2. Davlatlar quyidagilar bo‘yicha ta‘minlaydilar:

a) sud ta‘qibini amalga oshiruvchi shaxslarni tanlash mezonlari adolatsizlik yoki noto‘g‘ri qarashlarga asoslangan tayinlashga qarshi kafolatlarni va biror-bir shaxsga nisbatan uning irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa

e'tiqodi, milliy, ijtimoiy yoki etnik kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy, moddiy yoki boshqa holatlari belgisiga ko'ra har qanday kamsitishni istisno qilish, shu bilan birga, sud ta'qibini amalga oshirishni nazarda tutadigan lavozimga muayyan mamlakat fuqarosini nomzod qilib tayinlash tartibi kamsitish sifatida ko'rilmasligini o'z ichiga olishini;

b) sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning tegishli ta'lim va tayyorgarlikka ega bo'lishini, ushbu lavozimga xos ideal va etika normalarini anglashlarini hamda ayblanayotgan shaxslar va jabrlanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha konstitusiyaviy va normativ choralar, shuningdek milliy va xalqaro huquq tomonidan e'tirof etilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida xabardor bo'lishlarini ta'minlaydi.

### **Xizmat maqomi va shartlari**

3. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar jinoiy odil sudlovni amalga oshirish tizimining juda muhim vakillaridan biri bo'lib, o'z kasblarining obro'si va qadr-qimmatini doimo saqlaydilar.

4. Davlat sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning o'z kasbiy majburiyatlarini tajovuzlar, qarshiliklar, qo'rqitishlar, keraksiz aralashuv yoki asossiz ravishda fuqarolik, jinoiy yoxud boshqa janobgarlikka tortishdan holi bajarishlarini ta'minlaydi.

5. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar va ularning oilalari sud ta'qibini amalga oshirish bo'yicha o'z vazifalarini bajarishlari natijasida ularning xavfsizligiga tahdid mavjud bo'lgan hollarda hokimiyat tomonidan jismoniy himoya bilan ta'minlanadi.

6. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning xizmatining oqilona shartlari, ularni tegishlicha mukofotlash hamda bu qo'llaniladigan joyda, ularning vakolat muddati, pensiya ta'minoti va pensiyaga chiqish yoshi qonun yoki e'lon qilingan normalar yoxud qoidalar bilan belgilanadi.

7. Shunday tizim mavjud bo'lganda, sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning lavozimini oshirish ob'ektiv omillarga, xususan, ularning kasbiy malakasiga, qobiliyatiga, axloqiy xislatlari va tajribasiga asoslanadi hamda bu to'g'risidagi qaror adolatli va adolatli tartib-taomillarga muvofiq qabul qilinadi.

### **E'tiqod va uyushmalar erkinligi**

8. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar boshqa fuqarolar kabi fikr bildirish, e'tiqod, uyushmalar va yig'ilishlar erkinligi huquqiga ega. Xususan, ular huquq, odil sudlovni amalga oshirish va rag'batlantirish hamda inson huquqlarini himoya qilish masalalarining ommaviy muhokamasida ishtirok etish, o'zlarining qonuniy xatti-harakatlari yoki qonuniy tashkilotga a'zoligi oqibatida o'z kasbiy faoliyatlarida cheklavlarga duchor bo'lmagan holda mahalliy, milliy yoki xalqaro tashkilotlarga kirish yoxud bunday tashkilotlar tuzish va ularning yig'ilishlarida qatnashish huquqiga ega. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar mazkur huquqlarni ro'yobga chiqarar ekan, o'z faoliyatida doimo huquqqa hamda o'z kasblarining e'tirof etilgan normalari va etikasiga amal qiladilar.

9. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar o'z manfaatlarini himoya qiluvchi, kasbiy tayyorgarligini oshiruvchi va o'zlarining maqomini himoya qiluvchi kasaba uyushmalar yoki boshqa tashkilotlar tuzish yoki ularga qo'shilish huquqiga ega.

### **Jinoyat muhokamasidagi roli**

10. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning lavozimi sud vazifalarini bajarishdan qat'iy ajratiladi.

11. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar jinoyat muhokamasida, shu jumladan, ish qo'zg'atishda va agar bunga qonunda ruxsat etilgan bo'lsa yoki mahalliy amaliyotga muvofiq bo'lsa, jinoyatni tergov qilishda, bunday tergovlarning qonuniyligini nazorat qilishda va boshqa vazifalarni davlat

manfaatlarini ifodalovchi vakillar sifatida amalga oshirishda faol rol o'ynaydilar.

12. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar o'z majburiyatlarini qonunga muvofiq adolatli, izchil va jadal bajaradilar, insoniy qadr-qimmatni hurmat qiladi va himoya qiladilar hamda inson huquqlarini himoya qiladilar, shu bilan jinoiy odil sudlov tizimining tegishli jarayonini va uzluksiz ishlashini ta'minlashga ko'maklashadilar.

13. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar o'z majburiyatlarini bajarishda:

a) o'z vazifalarini beg'araz bajaradilar hamda siyosiy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, madaniyati va jinsiga asoslangan har bir kamsitishlarga yoki boshqa har qanday shakldagi kamsitishlarga yo'l qo'ymaydilar;

b) davlat manfaatlarini himoya qiladilar, xolisona harakat qiladilar, gumon qilinuvchi va jabrlanuvchining ahvolini lozim darajada hisobga oladilar hamda ishga aloqasi bo'lgan barcha holatlarga, ular gumon qilinuvchi uchun foydali yoki foydali emasligidan qat'i nazar, e'tibor beradilar;

c) agar o'z majburiyatlarini bajarish yoki odil sudlov nuqtai nazaridan boshqacha talab bo'lmasa, kasbiy sirni saqlashga riya etadilar;

d) jabrlanuvchilarning shaxsiy manfaatlariga daxl qilindanda ularning fikrlari va tashvishlarini ko'rib chiqadilar hamda jabrlanuvchilarning Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilish qurbonlari uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari deklaratsiyasiga muvofiq o'z huquqlari bilan tanishishlarini ta'minlaydilar.

14. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar, odilona tergov ayblovning asossiz ekanligini ko'rsatgan hollarda sud ta'qibini qo'zg'atmaydi yoki uni davom ettirmaydi yoxud sud muhokamasini to'xtatish uchun imkon qadar barcha harakatlarni qiladi.

15. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, xususan, kor-

rupsiya, hokimiyatni suiiste'mol qilish, inson huquqlarining jiddiy buzilishi va xalqaro huquqda e'tirof etilgan boshqa jinoyatlar uchun sud ta'qibiga hamda agar bunga qonunda ruxsat etilgan yoki mahalliy amaliyotga muvofiq bo'lsa, bunday huquqbuzarliklar tergov qilishga alohida e'tibor qaratadilar.

16. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar ixtiyoriga gumonlanuvchilarga qarshi o'zlariga ma'lum bo'lganidek yoki ular gumonlanuvchining noqonuniy usullar yordamida inson huquqlari qo'pol ravishda buzilishini, ayniqsa, qiynoqlar yoxud muomala yoki jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitish yoxud inson huquqlarining boshqa buzilishlarini qo'llash bilan bog'liq deb hisoblashi uchun oqilona asosga ega bo'lgan dalillar kelib tushganda, ular bu kabi dalillardan bunday usullarni qo'llaganlardan tashqari, har qanday shaxsga qarshi foydalanishni rad etadilar yoki tegishli ravishda sudni xabardor qiladi hamda bunday usullarni qo'llashga mas'ul bo'lgan shaxslarning sudga jalb qilinishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

### **Ixtiyoriy vazifalar**

17. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga ixtiyoriy vazifalarni bajarish bo'yicha vakolatlar berilgan mamlakatlarda qonun yoki e'lon qilingan normalar yoxud qarorlar sud ta'qibi, jumladan, sud ta'qibini qo'zg'atish yoki bekor qilish jarayonida qarorlar qabul qilishda adolat va izchillikni oshirish uchun rahbariy prinsiplarni ta'minlaydi.

### **Sud ta'qibiga muqobil usullar**

18. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar milliy qonun hujjatlariga muvofiq shu bilan birga gumonlanuvchi (gumonlanuvchilar) va jabrlanuvchining (jabrlanuvchilarning) inson huquqlarini to'liq hurmat qilgan holda, sud ta'qibini bekor qilish, muhokamani shartli yoki shartsiz ravishda to'xta-

tib qo'yish to'g'risidagi yoki jinoyat ishlarini odil sudlovning rasmiy tizimidan olib tashlash to'g'risidagi masalani tegishli tarzda ko'rib chiqadilar. Ushbu maqsadlarda davlatlar nafaqat sudlarning haddan tashqari ish hajmi yuklanganligini kamaytirish uchun, balki sudga qadar ushlab turish, ayblash va hukm qilish bilan bog'liq bo'lgan sharmandalikning, shuningdek qamoq jazosining ehtimol tutilgan salbiy oqibatlarini oldini olish uchun ishlarni bekor qilish dasturlarini qabul qilish imkoniyatini to'liq o'rganishlari kerak.

19. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga voyaga yetmaganga nisbatan ish qo'zg'atish yoki qo'zg'atmaslik to'g'risida qaror qabul qilishga doir ixtiyoriy vazifalarni bajarish bo'yicha vakolatlar berilgan mamlakatlarda huquqbuzarlikning xususiyati va jiddiyligi, jamiyatni himoya qilish fikr-mulohazalari hamda voyaga yetmaganing xarakteri va rivojlanish darajasi alohida ko'rib chiqiladi. Ushbu qarorni qabul qilishda sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar tegishli qonunlar doirasi-da mavjud bo'lgan sud ta'qibiga muqobil usullarni va voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning tartib-taomillarini alohida ko'rib chiqadi. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar voyaga yetmaganlarning sud ta'qibi faqat qat'iy zarur doiralarda o'tishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi.

### **Boshqa hukumat organlari yoki muassasalari bilan aloqalar**

20. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar sud ta'qibining adolatli va samarali bo'lishini ta'minlash uchun polisiya, sudlar, yuristlar, jamoat qoralovchilari va hukumatning boshqa organlari yoki muassasalari bilan hamkorlik qilishga harakat qiladilar.

## **Intizomiy jazolar**

21. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan intizomiy jazoni qo'llash to'g'risidagi muhokama qonun yoki normativ hujjatlarga asoslanadi. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarning o'z xatti-harakatlari bilan kasbiy standartlarni ochiq-oydin buzganligini tasdiqlovchi shikoyatlar tegishli tartib-taomilga muvofiq darhol va haqqoniy ravishda ko'rib chiqiladi. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar adolatli muhokama huquqiga ega. Chiqariladigan qaror mustaqil tomon tekshiruvidan o'tkaziladi.

22. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslarga intizomiy jazoni qo'llash to'g'risidagi muhokama ob'ektiv baholash va ob'ektiv qaror qabul qilishni kafolatlaydi. Muhokama qonun, Kasb axloqi kodeksi hamda boshqa belgilangan mezonlar va etika normalari hamda ushbu Rahbariy prinsiplarga muvofiq o'tkaziladi.

## **Rahbariy prinsiplarga rioya etish**

23. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar ushbu Rahbariy prinsiplarga rioya etadi. Ular, shuningdek imkon qadar Rahbariy prinsiplarning har qanday buzishining oldini oladi va bunday buzilishlarga qarshi faol kurashadi.

24. Sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar ushbu Rahbariy prinsiplarning buzilishi sodir bo'lgan yoki tez orada sodir bo'lishi mumkin deb hisoblash uchun asosga ega bo'lsa, bu haqda o'zlarining yuqori turuvchi boshliqlariga va zarur hollarda, bunday buzilishlarni muhokama qilish yoki tuzatish bo'yicha vakolatlar yuklatilgan boshqa tegishli organlar yoki hokimiyatlarga xabar beradi.





**SUD TA'QIBINI  
AMALGA OSHIRUVCHI SHAXSLARNING  
ROLIGA TAALLUQLI RAHBARIY PRINSIPLAR**

Nashr uchun mas'ul: M. Tillabayev  
Muharrirlar: L. Ruzikulova  
  
Kompyuterda sahifalovchi: A. Jumaniyazov

2023-yil 12-avgustda chop etishga ruxsat berildi.

Bichimi 84 x 108  $\frac{1}{32}$ .

Shartli bosma tabog'i 0,8. Nashr tabog'i 1,2.

Adadi 100 nusxa. 15-buyurtma.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida chop etildi.  
100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.